

## O'SMIRLIK DAVRI AVTONOMIYASI

**Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi**

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi III-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11641759>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smirlik davrida kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holati, o'smirlik avtonomiyasining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari yoritib o'tilgan. Shuningdek o'smirlarda yolg'izlik hissi namoyon bo'lishining xususiyatlari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik davri, avtonomiya, huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya.

## AUTONOMY OF ADOLESCENT PERIOD

**Abstract.** This article describes the state of adolescent autonomy observed during adolescence, the types of adolescent autonomy, such as legal autonomy, emotional autonomy, and spatial autonomy. There are also opinions about the characteristics of the manifestation of the feeling of loneliness in teenagers.

**Key words:** adolescence, autonomy, legal autonomy, emotional autonomy, spatial autonomy.

## АВТОНОМИЯ ПОДРОСТКОВОГО ПЕРИОДА

**Аннотация.** В статье описывается состояние подростковой автономии, наблюдаемое в подростковом возрасте, такие виды подростковой автономии, как юридическая автономия, эмоциональная автономия и пространственная автономия. Существуют также мнения об особенностях проявления чувства одиночества у подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, автономия, правовая автономия, эмоциональная автономия, пространственная автономия.

---

O'smirlik 11-12 yoshdan, 14-15 yoshgacha bo'lan davrni o'z ichiga oladi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas»- ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakillanadi,

ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham karakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Ba'zan ijtimoiy masalalar to'g'risida noto'g'ri tassavvur va yanglish fikrlar hosil bo'lishi tufayli u muayyan tartib qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi.

O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. 11-12 yoshdan boshlab o'smir mantiqiy fikrlab boshlaydi. Uni ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

O'smirlik davrining xarakterli xususiyatlaridan biri - bu davrda o'smirlarda kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holatidir. O'smirlik avtonomiyasining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari farqlanadi.

Ma'lumki, bola dunyoga kelgan kundan boshlab kimningdir qaramog'iga muhtoj bo'ladi.

Ota-onasi va boshqa yaqinlari uni oziqlantiradi, kiyintiradi, tarbiyalaydi va bolani muntazam nazorat ostadi tutadi. Ular bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlab turadilar va bola bunday qo'llab-quvvatlash, daldalarga muhtojlik his etib turadi. O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy avtonomiya ayni vaqtda bola o'smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Mabodo bu davrda o'smir ota-onasi ajralib ketgudek bo'lsa, bu holatda o'smirning qayerda va kim bilan qolishi bola xohishiga qarab hal etiladi. Ba'zida ota-onalarning o'smiringa erkinlik bermasligi natijasida, ular ota-onaga qarshi bo'lib qoladilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana o'sha muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hisi ham shakillana boshlaydi. Shuningdek bola bu davrda o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda rasmiy ravishda jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi ham mumkin. Lozim bo'lsa ulardan o'z xatti-harakati, qiliqlari uchun javob berishi ham talab qilinadi. Shu kabi huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lish va bundan o'smirning xabardorligi uning huquqiy avtonomiyasining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo'lish o'smirda o'z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas'uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi.

O'smirlik avtonomiyalaridan yana biri-emotsional avtonomiyadir. Ma'lumki bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofidagilarning emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga,

ishonishlariga, mehr-muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyub, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkanishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganidan», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy ko'llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o'z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o'zini erkin, tetik, g'olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O'zining kichkinagina hayotida duch kelgan «muammolari»ni hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi o'smirlarning oilalarida uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin ma'suliyatni o'z zimmlariga olishlari bir muncha qiyin kechadi.

O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz bo'lishga ayniqsa o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetqda bo'lishga, o'z o'y hayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o'z tengdoshlari, yaqin o'rtoqlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi.

Ayni vaqtda o'smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan havotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda ko'proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda ularning avtonomiyasiga «bostirib kiradilar». Buni esa o'smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin.

O'smir bilan muloqot qilishda ota-onalar avvalo o'smirning jismoniy, psixologik o'tish davrida ekanligini inobatdga olgan holda muloqot va munosabatda bo'lishi kerak. Jinsiy rivojlanish jarayoni o'smirda bevosita emas bilvosita ta'sir ko'rsatsada ayni bu davrlarda bolaning ruhiyatida turli xil o'zgarishlar kechadi. Shuningdek o'qituvchilar ham bunga alohida ahamiyat



berib ularning psixologik xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lsa, albatta maqsadga muvofiq bo'ladi.

## REFERENCES

1. Mullaboeva N.SH., O'smirlarda yolg'izlik hissi shakllanishining psixoprofilaktikasi va psixokorreksiya. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.06 / Mullaboeva Nargiza SHaropaliyeva. – Toshkent.
2. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
3. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
4. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti – 2018.
5. Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQUISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index.